


I S T E' M O L B O Z O R I

Chakana savdo aylanmasi joriy yilning yanvar-oktabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,2 %ga oshdi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 10,6 %ni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 144 %ga o'sdi.

2018 yil yanvar-oktabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da)



O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha tumanlarida o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqoriroq o'sish sur'atlari Andijon shaxri (8.0 %ga), Andijon (7,0 %ga), Shaxrixon (5.4 %ga) va Pahtaobod (4,7%ga) tumanlarida. Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Ulug'nor (1,5%ga), Oltinko'l (2,6 %ga), Asaka (2,7ga) va Bo'z (2,9 %ga) tumanlarida kuzatildi.

Tuman(shahar)larning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %da



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Andijon shahri (28,8 %), Shaxrixon (15,4 %), Asaka (10,5%), Qo'rg'ontepa (8,3 %) va Andijon (5,6 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ovqatlanish tashkilotlarini qoʻshgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 3,5 % ga oshib, 2730,6 ming so'mni tashkil etdi (2017 yil 2182,8 ming so'mni tashkil qilgan edi). Oʻrtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori koʻrsatkichlari Andijon shahri (5533,8 ming soʻm), Shaxrixon (4439,1 ming soʻm) va Qoʻrgʻontepa tumanlarida (3289,9 ming soʻm) kuzatildi.


Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 91,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2,0 %ga oʻsdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,1 %ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi		
	Ming soʻm	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Viloyat boʻyicha:	2730,6	103,5
Andijon sh	5533,8	106,5
Honobod sh	1745,8	103,1
<i>tumanlar:</i>		
Andijon	1832,6	104,9
Asaka	2761,7	100,7
Baliqchi	1905,3	102,4
Buloqboshi	1849,9	101,6
Boʻz	1541,0	101,1
Jalaquduq	1861,2	102,8
Izboskan	1641,5	102,7
Ulugʻnor	1389,6	99,8
Marhamat	1354,0	101,5
Oltinkoʻl	1606,0	100,7
Pahtaobod	1988,9	102,8
Hoʻjaobod	1319,0	101,7
Shaxrixon	4439,1	103,5
Qoʻrgʻontepa	3289,9	102,0

KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,0 %ga o'sdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmining 89,4 %ini tashkil qildi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari umumiy tovar aylanmasi hajmining 6037,8 mlrd.so'mini uyushmagan savdo tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning ulushi (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning eng katta ulushi Bo'z -99,8 %, Ulug'hor - 99,7 %, Qo'rg'ontepa -98,9 %, Oltinko'l - 98,8 %, va Jalaquduq tumanlarida - 98,4 %. Eng past ulush Andijon shahrida - 70,5 % va Andijon tumanida - 92,1 % qayd etildi.

2018 yil yanvar - oktabr oylarida ULGURJI TOVAR AYLANMASI

2018 yil yanvar - oktabr oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 1441,5 mlrd. so`mni yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 111,4%ni tashkil qildi.

Ulgurji tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan Shaxrixon tumanida 100,5%ga kamayish kuzatildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 10,5% o'sdi va 813,5 mlrd. so`mga etdi, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 56,4 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdodagi ulushi, (foizda)

